

INKLYUZIV TA'LIMNI XORIJIY DAVLATLARDA NAZARIY VA AMALIY QO'LLANILISHI

*Namangan Davlat Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi (logopediya)
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Murodova Mahliyo Otajonovna

Xusanov A'zamjon Axmadjanovich

NamDu Ta'lim menejmenti kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim va uning maqsadi, Konfrensiya "Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limining kelgusidagi ijrosini ta'minlash ramkasi", inklyuziv ta'limga kadrlarni tayyorlash uchun "Maxsus pedagogika", "Maxsus psixologiya" va "Maxsus metodikalar" haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, meynatirling, integratsiya, intellektida buzilishga ega bolalar, psixik rivojlanishi sust bolalar, "Tavakkal" guruhi, kompensatsiya qiluvchi ta'lim, pedagogik yordam, adaptatsiya, Brayl yozuvi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Аннотация: *в данной статье рассматриваются инклюзивное образование и его цель, конференция «Саламанкская декларация и рамки будущего осуществления образования детей с особыми потребностями», курсы «Специальная педагогика», «Специальная психология» и «Специальные методы» для подготовка кадров для инклюзивного образования. Информация предоставлена.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, психическое здоровье, интеграция, дети с ограниченными интеллектуальными возможностями, умственно отсталые дети, группа «риска», компенсаторное образование, педагогическая поддержка, адаптация, письмо Брайля.*

THEORETICAL AND PRACTICAL APPLICATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES

Abstract: *this article discusses inclusive education and its purpose, the Conference "Declaration of Salamanca and the Framework for the future implementation of the education of children with special needs", "Special Pedagogy", "Special Psychology" and "Special Methods" courses for training personnel for inclusive education. information provided.*

Key words: *inclusive education, mental health, integration, children with intellectual disabilities, mentally retarded children, "At-risk" group, compensatory education, pedagogical support, adaptation, Braille writing.*

Dolzarblici. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida inklyuziv ta'lim tan olinmoqda.

Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday halqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi"

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi. Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5 sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim - nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qati nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limning asoslari shundan iboratki, nogiron o'quvchilarni turli ehtiyojlarini qondirish kerak. Bunday maktablarning oldiga qo'ygan maqsadi shundaki, barcha o'quvchilarga to'laqonli ijtimoiy hayotida, jamoa ishlarida va mahalliy jamiyatda faol ishtirok etishda, shu jamiyatning bir a'zosi sifatida yordam berishga qaratilgan.

Meynatiriling - bunda nogiron bolalar o'z tengdoshlari bilan bayramlarda, darsdan tashqari vaqtlarda muloqot qiladilar, ayrim bolalar ommaviy maktablarning sinflariga ham kiritilib, ular ta'lim olish maqsadida emas, balki o'z tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kiritiladi.

Integratsiya - bu ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar ehtiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalga oshirish; ular nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan maktablarga boradilar lekin maktabga borish majburiy emas, bu ularning xohish-istaklaridan kelib chiqadi. Umumjahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzi aholisining 9-11 foizini rivojlanishdan orqada qolgan va ularning ruhiy-jismoniy holati bilan bog'liq maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan kishilar tashkil etadi. Jahon miqyosida rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning ta'limiy imkoniyatlarini hamda ularning huquqlarini ta'minlash jarayonini bosqichma-bosqich

o'rganish natijasida "Ta'lim hamma uchun" dasturini amalga oshirish, maxsus yordamga muhtoj bolalarning to'laqonli mukammal ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida 1994-yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlatining Salamanka shahrida ikkinchi yirik Umumjahon Konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur Konferensiya "Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limining kelgusida ijrosini ta'minlash Ramkasi" deb atalib, shu yili "Salamanka bayonoti va ish faoliyati rejasi" nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. Salamanka bayonoti va ish faoliyatining asosiy yetakchi tamoyili maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar o'qishga qabul qilishlari lozimligi ko'zda tutiladi. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha "Har bir bola ta'lim olish va o'ziga muvofiq ravishda bilim olish huquqiga ega". Bugungi kunda jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizmini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilyapti. Buni bir necha jahon davlatlari misolida ko'rib chiqamiz.

Rossiyada inklyuziv ta'limning keng tarqalgan modeli ommaviy maktablardagi maxsus sinflardir. Ular quyidagi alohida yordamga muhtoj bolalar uchun tashkil etilgan:

- intellektida buzilishga ega bolalar uchun
- psixik rivojlanishi sust bolalar uchun korreksiya sinflari
- "Tavakkal" guruhi bolalar uchun (ta'lim olishda, xulq-atvorda qiyinchiliklarga ega, sog'ligi zaif)
- kompensatsiya qiluvchi ta'lim, pedagogik yordam, adaptatsiya va sog'lomlashtirish sinflari.

Qozog'istonda 2003-yil "Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion ijtimoiy va tibbiy - pedagogik qo'llab -quvvatlash haqidagi" Qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish, korreksion pedagogik ish olib borish maqsadida reabilitatsion markazlar, psixologik-pedagogik korreksiya xonalari, maxsus maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari qoshida qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Inklyuziv ta'limga kadrlarni tayyorlash uchun "Maxsus Pedagogika" "Maxsus Psixologiya" va "Maxsus metodikalar" kurslari kiritildi.

Qirg'izistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish tanlab olingan davlat maktablari va xususiy o'quv muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislar guruhi ommaviy maktablarda ta'lim olish uchun imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab oladi. Ularning bazasida o'qituvchilar, ot-onalar, mahalliy hokimiyat vakillari uchun 3 ta seminar, Ta'lim Vazirligi va mahalliy ta'lim departament vakillari uchun respublika miqyosidagi konferensiya ham o'tkazilgan.

Buyuk Britaniyada integratsiya jarayonida maxsus maktab o'quvchilari uchun alohida dastur ishlab chiqilgan. Maxsus maktab o'quvchilarining ma'lum qismi ommaviy maktabda ta'lim oladilar. Integratsiyani amalga oshirish uchun o'yin, jismoniy tarbiya, amaliy faoliyat turlari alohida tanlangan. Buyuk Britaniyada integratsion ta'limni tashkil etish uchun maktablar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limi uchun alohida mablag' bilan ta'minlanadi.

Finlyandiya zaif ko'ruvchi bolalarning ko'p qismi ommaviy maktabda ta'lim oladi. Bunda maxsus maktab o'qituvchilari ommaviy maktab o'qituvchilariga katta tashkiliy yordam ko'rsatadilar. Xususan, ta'lim dasturlarini yaratishda Brayl va Vizual mobillik tizimida lokal kurslarni tashkil etishda, Brayl shrifti bilan yozilgan metodik qo'llanmalar, darsliklar, kitoblar va ovoz yozuvlari jamlangan kutubxonani tashkil etishda yordam beradilar.

Shveytsariyada rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'limining asosiy qismini ommaviy maktabda olishlarini ko'zda tutuvchi dastur mavjud. O'qituvchilar 4 kishidan ommaviy maktabning 3 ta o'qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega 1 ta o'qituvchidan iborat guruh faoliyat ko'rsatadi. Maktab ma'muriyati 3 oyda bir marta ta'lim psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib zarur tadbirlar va ota-onalar bn uchrashuvlar borasida maslahatlashib oladilar. Bunday yondashuv o'qituvchi mehnatini samaradorligini oshirish integratsiya sinflarida ta'lim metodlarini qo'llash sifatini oshirishda muhim omildir.

Niderlandiyada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim olayotgan 28ta ommaviy maktablar mavjud. Konsultatsion ta'lim markazi imkoniyati cheklangan bolalarni ommaviy maktablarda ta'lim olishiga qaratilgan siyosatni olib boradi, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda ularni zarur materiallar bilan ta'minlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek o'quv dasturlarini yaratish, integratsion ta'lim doirasida yagona siyosatni ishlab chiqish va uni iqtisodiy ta'minlashni ko'zda tutadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'tgan 20 yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda xali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-sonli qarori.
2. R. Sh. Shomahmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent - 2011yil .
3. L.R. Muminova. "Inklyuziv ta'lim" Toshkent-2014 yil.
4. A. A. Xusanov "Inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning hozirgi kun muammolar" Maxsus va inklyuziv ta'lim: an'ana,tajriba va innovatsiyalar» mavzusida respublika anjumani tezislari to'plami . Toshkent. 2023 yil 27 – oktabr. 28-31 betlar.
5. "ZAMIN"fondi vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoevaning Jahon bolalar kuniga hamda YuNISEfning 75yilligiga bag'ishlangan «Nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziyani ta'minlash» deb nomlangan yuqori darajadagi xalqaro forumdagi nutqidan., Toshkent., 2021 yil 19 noyabr.